

Bobonazarova Yulduz Botirovna

O'qituvchi

Toshkent avtomobil va yo'llar texnikumi, O'zbekiston

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI 2017-2023 YILLARDAGI

IQTISODIY FAOLLIK BAROMETRI: HUDUDLAR KESIMIDA

Аннотация: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotidagi 2017-2023 yillar davridagi iqtisodiy faollik dinamikasi hududlar kesimida tahlil qilinadi. Hududlar bo'yicha iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, investitsiyalar, sanoat rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida barometr tuzilgan bo'lib, mintaqaviy iqtisodiyotlarning o'zgarishlari yoritiladi.

Калит сўзлар: iqtisodiy faollik, O'zbekiston, hududlar, iqtisodiy o'sish, investitsiyalar, sanoat rivoji, barometr.

Юлдуз Бобоназарова

Учитель

Ташкентский автомобильно-дорожный техникум, Узбекистан

БАРОМЕТР ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ В

ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА НА 2017-2023 ГОДЫ: ПО РЕГИОНАМ

Аннотация: В статье анализируется динамика экономической активности в Узбекистане за период 2017-2023 годов в разрезе регионов. Статья включает создание барометра экономического роста по регионам на основе показателей инвестиций, промышленного развития и социально-экономических индикаторов, что позволяет выявить изменения в региональной экономике.

Ключевые слова: экономическая активность, Узбекистан, регионы, экономический рост, инвестиции, промышленное развитие, барометр.

Yulduz Bobonazarova

Teacher

Tashkent Automobile and Road Technical School, Uzbekistan

BAROMETER OF ECONOMIC ACTIVITY IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN FOR 2017-2023: BY REGION

Abstract: This article analyzes the dynamics of economic activity in Uzbekistan for the period of 2017-2023 across regions. A barometer of economic growth is constructed based on regional indicators of investments, industrial development, and socio-economic factors, revealing changes in the regional economies.

Keywords: economic activity, Uzbekistan, regions, economic growth, investments, industrial development, barometer.

Kirish. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi yalpi ichki mahsulot YaIMning barqaror o'sishi bilan harakterlanadi, mamlakatimiz iqtisodiyotidgi tub o'zgarishlar iqtisodiyotning barcha sohalari singari yalpi ichki mahsulotlar zamirida 2017-2023-yillarda kesimida 1,4 barobarga oshganligi bilan tavsiflanadi. YaIMning yiliga o'rtacha 5,4 foiz o'sishiga aosiy sabab ko'rsatgichlaridan biri asosan xizmat ko'rsatishdir, yillar salmog'ida bu samaradorlik 2,4 foizda ko'rsatgan bo'lsa, sanoat 1,5 % tarmoqlari salmoqli hissa qo'shdi.

Statestik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizning 6 ta hududi Toshkent shahri, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Andijon, Toshkent viloyatlari izchil rivojlanayotgan hududlar guruhidan joy oldi. Ma'lumot uchun: IFBni baholashda ishlab chiqarish, tadbirdorlik faolligi hamda hududlarning jozibadorligini aks ettiruvchi 3 ta blok va 13 ta ko'rsatkichdan foydalaniladi. Rivojlangan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida iqtisodiy faollik asosan sanoat 1,6 barobar, qurilish 2,1 barobardan ortiq, xizmatlar 1,8 barobardan 2,4 barobarga, investitsiyalarni jalg qilish esa 1,9 barobar talqin etildi. Turli sohalardagi o'sish hamda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari sonining 2,2 barobar ortishi hisobiga ta'minlandi. Buning natijasida mazkur hududlarning YaIMdagi mavqeい mustahkamlandi. YaHMning YaIMdagi ulushi 2017-yildagi 25 foizdan 2023-yilda 27,2 foizga oshdi. Rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan Jizzax va Xorazm

viloyatlarida esa sanoat o'sish 1,6 barobardan ortiq, qurilish va xizmatlar 2 barobar, investitsiyalarni jalg qilish 3,5 barobardan ortiq, tovar va xizmatlar eksporti 2,4 hajmdan 3,3 barobarga yetganini ko'rish mumkin, bundan tashqari ro'yxatga olingan korxonalar 2,4 barobar va yangi tashkil etilgan 2,6 barobardan ortiq KBSning ortishi iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili bo'ldi. IFBning 2 ta ko'rsatkichi faoliyat ko'rsatmayotgan va o'z faoliyatini to'xtatgan KBS sonining ko'payishi bo'yicha salbiy tendensiya qayd etilganiga qaramay, Jizzax va Xorazm viloyatlarining rivojlanish dinamikasi yetakchi pozitsiyalar bo'yicha jadal o'sish kuzatilgan ko'rsatkichlarning ko'pligi (mos ravishda 8 ta va 10 ta) bilan ahamiyatlidir. Natijada ushbu hududlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM ko'rsatkichining YaIM ko'rsatkichiga biroz yaqinlashishi kuzatildi. Masalan, YaIM va Jizzax viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM o'rtasidagi farq 2017-yildagi 1,8 barobardan bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2023-yilda 1,3 barobarga kamaydi. Shu bilan birga, hududlarning iqtisodiy faolligini ta'minlashda ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlik faoliyatini yaxshilash masalalarini hal etish davr talabiga aylanib bormoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasida "drayver" tarmoqlarni rivojlantirish va hududlar salohiyatidan to'liq foydalanish, 2030-yilga borib, iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar" qatoriga kirish rejalashtirilgan. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'zda tutilgan: - hududlarning ishlab chiqarish faolligini oshirishda – har bir hududda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy etish, aholi soni 300 ming nafardan ortiq bo'lgan shahar va tumanlarda IT xizmatlari, ta'lim, tibbiy xizmatlar, turizm xizmatlari, mehmonxona boshqaruvi, ovqatlanish va transport xizmatlarini rivojlantirish; - hududlar jozibadorligini oshirishda – hududlarning investitsiya reytingini joriy etish, salohiyat va imkoniyatlardan kelib chiqib, har bir hududning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish, kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish, xalqaro bozorlarga olib

chiqish imkoniyatlarini kengaytirish; - hududlarda tadbirkorlik faolligini oshirishda – tadbirkorlarga «tayyor biznes» shaklida bino berish mexanizmini keng joriy etish, soliq tizimini to‘liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish. IFB hududlardagi iqtisodiy o‘sish tendensiyasini aks ettiradi hamda nomutanosibliklarni kamaytirish choralarini ko‘rish, shu bilan birga hududlarda ishbilarmonlik faolligini oshirish chorasini topish uchun samarali vositadir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo‘yicha IFBni baholashda 12 ta statistik ko‘rsatkichni o‘z ichiga olgan 3 tasi tarkibiy qismidan iborat bo‘lsa, sanoat, tadbirkorlik, tashqi savdo faoliyati bo‘yicha nisbiy taqqoslash va “Pattern” usullari qo‘llanildi. 2017—2022-yillar bo‘yicha baholash natijalariga ko‘ra, quyidagilar aniqlandi:

Iqtisodiy faollikning nisbatan yuqori darajasi Toshkent shahri, Jizzax, Namangan, Andijon, Xorazm viloyatlarida BEA indeksi 0,500 dan yuqori qayd etildi. Ushbu hududlar guruhi; Jizzax viloyatidan tashqari IFBda dinamik iqtisodiy o‘sish 2017 - 2022-yillardagi YHM o‘sishi respublika ko‘rsatkichidan yuqori — 128 % asosan sanoat ishlab chiqarishi, chakana savdo, qurilish ishlari, tovarlar va xizmatlar eksporti hisobiga kuzatilmoxda. YHMning mo‘tadil o‘sishiga 2017—2022-yillarda 123,7 % qaramay, Jizzax viloyati IFBning yuqoriligi iqtisodiyot tarmoqlari sanoat, xizmat ko‘rsatish, tadbirkorlik (mavjud kichik biznes subyektlarining o‘sishini) hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish (mashina va uskunalar importi) hisobiga ta’milanmoqda; Shu bilan birga, IFB Jizzax, Namangan, Andijon, Xorazm viloyatlari iqtisodiy rivojlanish darajasining oshishida ham o‘z aksini topdi.

O‘rtacha faollik darajasiga ega bo‘lgan ikkinchi guruhdan Samarqand, Farg‘ona, Surxondaryo, Navoiy viloyatlari joy olgan bo‘lib, ushbu guruhda tadbirkorlik yaxshi rivojlangan, lekin ishlab chiqarish sur’ati nisbatan past (IFB indeksi = 0,400-0,500) ko‘rsatdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining nisbatan past iqtisodiy

faolligi (IFB indeksi 0,400 dan past) tabiiy resurslar va xomashyo resurslaridan samarali foydalanishni inobatga olgan holda eksportga yo‘naltirilgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirishni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ushbu muammo iqtisodiyoti agrar yo‘nalishga ega hududlar Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, YHMda qishloq xo‘jaligining ulushi 40 % dan ortiq, sanoatning ulushi esa 17-18 %, hamda iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo‘lgan hududlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Farg‘ona, Surxondaryo viloyatlari, YHMning aholi jon boshiga ko‘rsatkichi mamlakat miqyosidagi ko‘rsatkichdan 1,6-2 marotaba past uchun ham dolzarb sanaladi.

1-jadval

2017-2023-yillarda O‘zbekiston hududlarining iqtisodiy fallik barometri (IFB)

Hududlarning IFB tarkibiy qismlari bo‘yicha faolligi o‘rnini I guruh hududlari Iqtisodiy faoliyat darajasi nisbatan yuqori				
№	Hududlar kesimida	Ishlab chiqarish faolligi	Tadbirkorlik faolligi	Tashqi savdo faolligi
1	Jizzax	4	8	1
2	Toshkent shahri	1	6	7
3	Namangan	2	9	3
4	Andijon	5	13	2
5	Xorazm	3	10	5
6	Samarqand	6	3	6
7	Farg‘ona	10	4	4
8	Surxondaryo	3	5	11
9	Navoiy	9	1	9
10	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4	7	14
11	Buxoro	8	11	10
12	Qashqadaryo	11	2	12
13	Sirdaryo	7	14	8
14	Toshkent	5	12	13

Umuman olganda, hududlarning 2017-2022-yillardagi IFB darajasi nisbatan past rivojlangan hududlar (Jizzax, Namangan, Xorazm viloyatlari)ning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qildi. Ayni paytda tadbirkorlik va biznesni kengaytirish hududlarning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishning yetakchi bo‘g‘iniga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti. 2023-yil nashr 67 bet.
2. Alimxodjaev S.R. “O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti”. O‘quv qo‘llanma. T.: TDTU, 2010.
3. Alimxodjaev S.R., Ibragimova S.A. “Menejment asoslari”. O‘quv qo‘llanma. T.: TDTU, 2007
4. Makhmutullaeva S. Optimization of Global Logistics Networks: Experience of Asian Countries //International Journal of Leadership and Innovative Management. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 22-28.
5. Sobitjon M., Dustova M. X. QADIMGI VA HOZIRGI DUNYO DAVLATLARI IQTISODIYOTIDAGI FARQLAR, BOGLIQLIKLAR VA O’XSHASHLIKLAR //PEDAGOG. – 2022. – Т. 5. – №. 7. – С. 804-807.
6. Dustova M. COINS TO CRYPTOS: TRACING THE THREADS OF ECONOMIC TRANSFORMATION //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – Т. 24. – №. 5. – С. 78-82.
7. Xo‘jaqulova N. Dorivor o ‘simliklarni yetishtirish va qayta ishslashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar. – 2023.
8. Махмутуллаева С. РОЛЬ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В РАЗВИТИИ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПЛОДООВОЩНОЙ ПРОДУКЦИИ //Мировая наука. – 2024. – №. 8 (89). – С. 43-51.
9. Khujakulova N. R. Economic Efficiency of Using Innovative Technologies In the Cultivation of Medicinal Plants //The Journal of Economics, Finance and Innovation. – 2023. – С. 198-202.

10. Дустова М. К., Шомуротова С. Роль иностранных инвестиций в развитии экономики //Научный прогресс. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 1021-1025.